
Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar samaradorligi yanada oshirilmoqda

Buvayda tuman hokimyati majlislar zalida Prezidentimizning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda maktablarda Yangi yil tadbirlarni tashkil etish, o'quvchilarning qishki ta'til paytini mazmunli hamda maroqli o'tkazish maqsadida ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish, ta'lim muassasalari tomonidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan tashkiliy-amaliy ishlar va o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari tahlili, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish va muvofiqlashtirish bo'yicha ta'lim muassasalar bilan tasdiqlangan ikki tomonlama "Yo'l xaritalar"da belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi

2023-12-20 11:36:45